

AVTOKORXONALARDA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH BO'LIMI FAOLIYATINING SIFATINI UMUMIY BAHOLASH VA TEXNIK TAYYORGARLIK KOEFFITSIENTINI QO'LLASH BILAN BIRGA, UNING SIFAT VA EKSPLOATATSIYA XARAJATLARI DARAJASINI HISOBLASH

Sotvoldiyev Xasanboy Rasuljon o'g'li

Andijon mashinasozlik institut stajyor o'qituvchisi

[Tel:+998970079224](tel:+998970079224)

e-mail: xasanboysotvoldiyev1@gmail.com

Annottatsiya: Ushbu maqolada avtokorxonalar misolida avtotransport vositalarigaga texnik servis ko'rsatishni takomillashtirish, ishlab chiqarish moddiy texnika bazasini rivojlantirish samaradorligi, aholiga tegishli yengil avtomobillarga servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni takomillashtirishning muhim yo'llari va avtotransport vositalariga texnik servis ko'rsatish avtokorxonalarining qisqacha ishlab chiqarish texnik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Avtokorxonalar, avtotransport vositasi, servis xizmati, Texnik servis ko'rsatish, ishlab chiqarish moddiy texnika bazasi, yengil avtomobillar, ta'mir.

Respublikamizda avtomobil transportining iqtisodiy rivojlanish bosqichlari avtopark va servis tizimlarining takomillashishga intilishi bilan xarakterlanadi. Xozirgi kunda servis korxonalarining oldida turadigan asosiy muammosi bu – raqobatga bardosh berishdir.

Servis korxonalarining asosiy maqsadlari tariqasida mijozlarga imkoniyati boricha qulaylik yaratish, ularning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'la ravishda qondirishdan iboratdir. Ko'rsatilayotgan xizmatlarni alohida bosqichlarga taqsimlasa bo'ladi: zaruriy resurslar bilan ta'minlash, bajarishning texnologik jarayoni, nazorat, sinov, qabul qilish, xizmat ko'rsatish jarayoni. [1,2].

Servis faoliyatini tashkil etish sifati uning loyihalashtirish va zamon talablariga muvofiqlashtirishga uzviy bog'liqdir. Servis korxonalarining raqobatbardoshligi mijozlarning ehtiyojlarini tahlili, iste'molchilarning jinsi, yoshi va individual xususiyatlari, xizmat ko'rsatish jarayonining psixologik omillarini inobatga olishni taqazo qiladi [4].


Navbatdagi eng ustuvor vazifa — bu mamlakatimizni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishning muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirishdan iborat.

Birinchidan, infratuzilmani rivojlantirish yangi korxonalarni joylashtirish va butun iqtisodiyotni taraqqiy ettirish uchun zarur qulay shart-sharoitlar yaratadi, mamlakatimizning boy mineral-xom ashyo resurslarini o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. [3].

Uchinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, aholini toza ichimlik suvi, energiya bilan ta'minlash, ijtimoiy soha ob'ektlarini barpo etish, pirovard natijada aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, infratuzilmani rivojlantirish ko'p mehnat talab qiladigan keng ko'lamli soha hisoblanadi. Bu yangi ish o'rinlarini tashkil etish, aholining, ayniqsa, yoshlarning ish bilan bandligini ta'minlash, odamlarning daromadi va farovonligini oshirish imkonini beradi. [5,10].

Texnik adabiyotlar va dastlabki kuzatuvlar natijasida avtoservis korxonasi mijozlarini qayta murojaat etishdagi foyda va xarajatlar mutanosibligiga ta'sir etuvchi ishchi gipoteza ilgari surilgan (1-rasm).



Rasm 1. Avtoservis korxonasiga mijozlar qayta murojaat etishlarining tushim va xarajatlar mutanosibligi.

Mijozlarning avtoservis korxonasi xizmatiga ishonchini ortishi ularning qayta murojaat qilganlarida bilinadi. Bunda mijozlardan kelayotgan daromad ortadi va mijoz tamonidan to'lanmaydigan xizmatlarga bo'lgan talab kamayadi. Masalan, ma'lumot berish, konsultatsiya berish va mijozni olib yurish. Buning natijasida avtoservis korxonasi xizmatlariga qayta murojaat qiladiganlar toifasidan ular yangi doimiy murojaat qiladiganlar toifasiga o'tishni ko'rsatgan[2].

Eksperimental-analitik tadqiqot kafolatli xizmat tizimi uchun ishlab chiqarish usullarini samaraliligini baholashdan iborat. Avtoservis korxonasi umumiy sarf-harajatidan kafolat davridagi reklamatsiyaga tushgan detallarni minimum sarf-harajatini ishlab chiqish brak detallar soni, nazorat qiymati va ishlab chiqarish

jarayonidagi sifat nazorati sarfining aniq ko'rsatkichlaridan iborat. Ishlar hajmi, detallar va materiallar sarfini rejalashtirish uchun statistik hizmatga kirish va materiallar sarfi tushunchasi ishlatiladi. Shaxsiy avtomobillar uchun servis korxonalariga o'rtacha kirish soni 2 ... 4 martani tashkil etadi va avtomobillar eskirgan sari oshib boradi. TSXK va ta'mirlashga bir marta kirish ishlari o'rtacha statistik hajmi 2 ... 4 ishchi-soatni tashkil etadi. Ehtiyot qismlar va materiallar sarfi avtomobillar ishonchliligi to'g'risidagi ma'lumotlar va TSXK va ta'mirlash muayyan ishlarni bajarishdagi xaqiqiy sarflarni umulashtirish orqali topiladi. [1].

Shaxsiy avtomobillar ishonchliligi, ishlagan muddati, ishlatish sharoitlari va rejimlarining bir-biridan farq qilishi avtoservis xizmati bozorida turli korxonalar va tadbirkorlar faoliyat ko'rsatishlari mumkinligini belgilaydi [3].

Diagnostika texnik ekspluatatsiyaning nisbatan yangi va dinamik rivojlanayotgan qismidir.

Avtotransport vositalari yoki uning tarkibiy qismini bo'laklarga ajratmasdan yoki qisman ajratib va texnik diagnostika vositasini ulab texnik holatini aniqlash, texnik diagnostikalash deb ataladi. [7].

Foydalanish imkoniyati, texnik diagnostikalash tizimlarini amalda qo'llash kengligi bo'yicha diagnostika usullari universal va maxsus bo'lishi mumkin.

Texnologik joylashuvi bo'yicha texnologik jihozlar tashqi, avtomobil konstruksiyasiga doimiy o'rnatilgan va qurama bo'lishi mumkin.

Tashqi vositalar-konstruksiyasi diagnostikalash ob'ektidan ayrim holda bajarilgan stendlar, asbob (pribor) lar, jihozlar.

Avtomobil konstruksiyasiga doimiy o'rnatilgan vositalar diagnostikalash ob'ektining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Diagnostikalash ob'ekti avtotransport vositasi va (yoki) uning tarkibiy qismlari bo'lishi mumkin. [6].

Motorni texnik diagnostikalash- motorning texnik holati o'zgarsa, Avtotransport vositalari(keyingi o'rnlardaATV)ning tortish-tezlik xususiyatlari va yonilg'i tejamkorligi sezilarli yomonlashadi. Bu ko'rsatkichlarni yo'l sinovlari uslubi bilan aniqlash ob'ektiv va haqqoniy natijalar beradi. Yo'l sinovlari boshqa sinov usullariga nisbatan qimmat va xavfli. Shuning uchun avtokorxonalarda, diagnostika ishlarini o'tkazish amaliyotida yo'l sinovlari qariyb o'tkazilmaydi. [5].

Tezlanishning taxminiy bahosi sifatida, ma'lum tezlik bilan harakatlanayotgan avtomobil karbyuratorining drossel yopqichini to'satdan ochib (yuqori bosimli yonilg'i nasosi reykasi to'satdan suriladi), shig'ov jadalligi aniqlanadi. Yonilg'i sarfi, ishlatilgan gazlar rangining o'zgarishi, shovqin jadalligi va haroratning o'sishini qiyosiy tahlil etiladi. [6,8].

Yonilg'i sarfini o'lchash- yonilg'ining solishtirma sarfi ma'lum yuklama va tezlik tartibotlarida motorga tushayotgan yonilg'i miqdorini o'lchab aniqlanadi. Tortish stendi asosida yaratilgan diagnostika posti komplektlanishi mumkin bo'lgan va har xil printsiptda ishlaydigan o'lchagichlar bilan o'lchanadi. [9].

ADABIYOTLAR.

1.Raxmatov, U. F. O. G. L., Burxonov, S. U. B. O. G. L., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2022). IXTISOSLASHTIRILGAN TRANSPORT VOSITALARIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI VAQTIDA AMALGA ISHIRISHNING EKSPLUATATSIYA SHAROITIDAGI SALMOG'I. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 77-82.

2.Rahmatov, U. F. O. G. L., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2022). KORXONADA AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 68-68.

3. O Raxmatov, Xasanboy Rasuljon O'G'Li Sotvoldiyev. [Avtotransport vositalariga mavsumiy servis xizmat ko'rsatish turlari va ularning xarakat xavfsizligiga ta'siri](#). 2021. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 1147-1151

4. Utkirjon Farxod O'G'Li Rahmatov, Xasanboy Rasuljon O'G'Li Sotvoldiyev. [KORXONADA AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH](#).2022. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 62-68

5.Xasanboy Rasuljon o'g'li , . S. ., O'tkirjon Farxod o'g'li, R. ., Sardor, I. ., Suxrobjon, P., & Diyorbek Elyorbek o'g'li, S. . (2022). AVTOSERVIS KORXONADAGI TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA MIJOZLAR BILAN ISHLASHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(5), 302–306. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2334>

6.Raxmatov, O., & Sotvoldiyev, X. R. O. G. L. (2021). AVTOTRANSPORT VOSITALARIGA MAVSUMIY SERVIS XIZMAT KO'RSATISH TURLARI VA ULARNING XARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 1147-1151.

7. Xasanboy Rasuljon o'g'li, S. ., O'tkirjon Farxod o'g'li, R. ., Sardor, I., Suxrobjon, P. ., & Diyorbek Elyorbek o'g'li , S. . (2022). AVTOMOBILLARGA SERVIS XIZMAT KO'RSATISH STANSIYASLARIDA BAJARILADIGAN XIZMATLAR SIFATINI ANIQLASH USLIBINI ISHLAB CHIQUISH VA XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH YO'LI BILAN AVTOSERVIS

KORXONASINING RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH. *Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5)*, 312–315. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2336>

8. Xasanboy Rasuljon o'g'li, S. ., O'tkirjon Farxod o'g'li, R. ., Sardor, I. ., Suxrobjon, P., & Diyorbek Elyorbek o'g'li, S. . (2022). AVTOSERVIS KORXONADAGI TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH VA MIJOZLAR BILAN ISHLASHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Новости образования: исследование в XXI веке, 1(5)*, 302–306. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/2334>

9. Xasanboy Rasuljon o'g'li, S. . (2022). SERVIS XIZMAT KO'RSATISH STANSIYASLARIDA BAJARILADIGAN XIZMATLAR SIFATINI ANIQLASH USLIBINI ISHLAB CHIQUISH. *Новости образования: исследование в XXI веке, 1(4)*, 264–269. извлечено от <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/1336>

10. Azimov, T., Raximov, A., & Tursunboyev, L. (2023). SONLAR BILAN BELGILANGAN PROEKSIYALAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(2 Part 3), 68-72.

11. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.